



## **O‘ZBEKISTON “MILLIY TIKLANISH” DEMOKRATIK PARTIYASI “AYOLLAR QANOTI” TO‘G‘RISIDA NIZOMI**

### **I. Umumiy qoidalar**

1.1. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi “Ayollar qanoti” - partianing mustaqil tarkibiy bo‘g‘ini hisoblanadi va bevosita O‘zMTDP Markaziy kyengashi Ijroiya qo‘mitasiga bo‘ysunadi. Partianing “Ayollar qanoti” O‘zMTDP tarkibida O‘zMTDP a’zolari – xotin-qizlarning qarashlari, manfaat va maqsadlari mushtarakligi asosida tuzilgan. Unga a’zo bo‘lish ixtiyoriydir. O‘zMTDPning “Ayollar qanoti” O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

1.2. O‘zMTDPning “Ayollar qanoti” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari, O‘zMTDP Ustavi va Dasturi, O‘zMTDP Markaziy kyengashi (MK), Markaziy kengashi Ijroiya qo‘mitasining qarorlari hamda mazkur Nizomga muvofiq faoliyat yuritadi.

1.3. O‘zMTDPning “Ayollar qanoti” maqsad va vazifalarini O‘zMTDP MK Ijroiya qo‘mitasi devoni Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari bo‘limi (bundan keyingi matnlarda Bo‘lim deb yuritiladi) yordamida amalga oshiradi. O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning faoliyatiga umumiylahabarlikni O‘zMTDP MK Ijroiya qo‘mitasi devoni Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari bo‘limi boshlig‘i amalga oshiradi.

### **II. O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning asosiy maqsadlari**

2.1. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali jamiyat va davlat boshqaruvidagi mavqeini yanada yuksaltirish, oila, onalik va bolalik, tazyiq va zo‘ravonlik, gender masalalari borasida mavjud muammolarni tizimli hamda manzilli hal etish, shuningdek mamlakatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarning ijrosini ta’minlash, oila va xotin-qizlar bilan ishslash tizimini yangi darajaga olib chiqishni ta’minlashga ko‘maklashish.

2.2. Oila – jamiyatning ustuni, ayol – oilaning ustuni ekanligini e’tirof etgan holda ayollarning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun qonunchilikka o‘zgartishlar kiritish tashabbuskori bo‘lish.

2.3. Oilalarda ijtimoiy va axloqiy muhitni o‘rganish, muloqotlar olib borish orqali xotin-qizlarga taalluqli mavjud muammolarni hal etish bo‘yicha samarali tizimni yo‘lga qo‘yish.

2.4. Mamlakatning demokratik tamoyillarni ta’minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy, ma’naviy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy sohalarida gender tenglikni e’tirof etgan holda, ayollarning o‘ziga xos ehtiyojlarini e’tiborga oladigan muhitda o‘qish va ishlashlari uchun sharoit yaratishga ko‘maklashish.

2.5. O‘zbek oilasiga xos odob-axloqni mustahkamlash va aksincha milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo‘lgan turli xil zararli ta’sirlarga qarshi turishda oilaning rolini kuchaytirish, oilaning ma’naviy-huquqiy muammolarini yechish, xotin-qizlarning tibbiy savodxonligi va madaniyatini oshirishda reproduktiv salomatlikka qaratilgan tarbiyaviy ishlarni jadallashtirish.

2.6. Jamiyatda mustahkam oilalar bo‘lishini qat’iy ta’minlash, oilaviy ajrimlarini keskin kamaytirish va oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan ijtimoiy-huquqiy choralarni belgilashda xotin-qizlarni keng jalb etish.

2.7. Xotin-qizlarga moslashuvchan ish vaqtি oralig‘ini belgilashni joriy etish, ayollarning oilada ko‘proq bo‘lishlari uchun sharoit yaratish, shuningdek ularning oiladan, farzand tarbiyasidan ajralmagan holda hunarmandchilik, kasanachilik, tomorqachilik bilan shug‘ullanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish va rivojlantirish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borish.

2.8. Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya va himoya qilish borasidagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, ma’lum sabablar bilan uzoq vaqt xorijda bo‘lib qaytgan ayollarni oilasiga moslashtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda ko‘maklashish va ajrim oqibatida uy-joysiz qolgan ayollar va ularning farzandlari manfaatlarini himoya qilish.

2.9. Mamlakatda xotin-qizlarga oid qonunchilik ustidan jamoatchilik, deputatlik va parlament nazoratini o‘rnatishda ularning faol ishtirokini ta’minlash.

2.10. Xotin-qizlarda mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlarga nisbatan daxldorlik tuyg‘usini shakllantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borish.

### **III. O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning asosiy vazifalari**

3.1. O‘zMTDP “Ayollar qanoti” “Inson o‘zgarmasa – jamiyat o‘zgarmaydi” tamoyili asosida milliy an’analarga va umuminsoniy qadriyatlarga aylangan tuyg‘ularga asoslangan adolatli va barqaror fuqarolik jamiyatini shakllantirishda xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlash.

3.2. Jamiyat ravnaqida xotin-qizlar ishtirokini ta’minlashda partiya Ustavi va Dasturidan kelib chiqib, uning g‘oya va maqsadlarini amalga oshirish uchun muqobil dasturlar ishlab chiqish hamda o‘z siyosiy qarashlari yo‘riqnomasini yaratish.

3.3. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda xotin-qizlarning faol ishtirokini ta’minlash va shu orqali jamiyat hayotiga ijobji ta’sir ko‘rsatish, o‘z g‘oyalari, maqsadlari, vazifalari va qarorlarini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish.

3.4. Barcha bo‘g‘inlardagi partiya organlariga saylanish, hokimiyat vakillik organlariga nomzodini ko‘rsatish, partiya yig‘ilishlarida muhokama qilinayotgan

masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirish, takliflar kiritish, dasturiy maqsadlarni hayotga tatbiq etishda xotin-qizlarning bevosita ishtirokini ta'minlash.

3.5. O'zMTDPdan saylangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatlari hamda O'zMTDP qoshidagi "Deputat ayollar klubu" a'zolari orqali xotin-qizlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning doimiyligini ta'minlashga qaratilgan targ'ibot tadbirlarini amalgalash oshirish.

3.6. Xotin-qizlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlarini himoya qilish, ularning hayotiy ehtiyoj va manfaatlarini ifodalash, xotin-qizlar muammolariga oid dasturlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish.

3.7. Xotin-qizlarning zamonaviy mutaxassisliklarni egallashlariga ko'maklashish, iqtidorli xotin-qizlarni aniqlash, ilg'or tajribalarini ommalashtirish, "Ustoz-shogird" an'anasi asosida kasbiy mahoratini oshirish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratish.

3.8. Xotin-qizlarning mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularning jamiyat va davlat boshqaruvidagi mavqeini oshirish uchun sharoit yaratishda ko'maklashish.

3.9. Millat genofondini saqlash maqsadida xotin-qizlar va bolalarning ommaviy jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari, sanatoriy-kurortlarda davolanishlari, dam olishlarini rejallashtirish va tashkillashtirish jarayonlarida ularning faol ishtirokini ta'minlash.

3.10. Ushbu tamoyillarni amalgalash oshirishda O'zMTDP "Ayollar qanoti" faoliyati xotin-qizlar masalasida mutasaddi davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadi va ular bilan muammolar yechimini topishda birgalikda harakat qiladi.

#### **IV. O'zMTDP "Ayollar qanoti"ga a'zolik**

4.1. O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan, partianing Ustav va Dasturini, g'oya, maqsad va vazifalarini yoqlovchi har bir fuqarosi – O'zMTDP "Ayollar qanoti" a'zosi bo'lishi mumkin.

4.2. O'zMTDP "Ayollar qanoti" a'zosi boshqa jamoat tashkilotlariga ushbu tashkilotlarning faoliyati O'zMTDP va "Ayollar qanoti"ning maqsad va vazifalariga zid kelmagan taqdirda a'zo bo'lishlari mumkin.

4.3. O'zMTDP "Ayollar qanoti"ga a'zolik – berilgan ariza asosida yakka tartibda ko'rib chiqiladi. O'zMTDP "Ayollar qanoti"ga a'zo bo'lish istagini bildirgan shaxs, o'zi yashab turgan hududda faoliyat ko'rsatayotgan O'zMTDP Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari bo'limiga yoki hududiy partiya tashkilotiga ariza bilan murojaat etadi.

4.4. Joylardagi O'zMTDP Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari bo'limi ushbu arizani ariza berilgan kundan boshlab 1 (bir) hafta ichida ko'rib chiqishi lozim.

4.5. O'zMTDP "Ayollar qanoti" a'zoligiga qabul qilish rad etilgan taqdirda, ariza beruvchi o'z noroziligi haqida yuqori turuvchi partiya tashkilotiga shikoyat qilishi mumkin.

4.6. O'zMTDP "Ayollar qanoti" a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

- O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning barcha tadbirlarida ishtirok etish;
  - ushbu Nizom doirasida, O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning barcha yo‘nalishlaridagi faoliyatida tashabbus ko‘rsatish;
  - O‘zMTDP “Ayollar qanoti” safidan o‘z arizasiga asosan chiqish.
- 4.7. O‘zMTDP “Ayollar qanoti” a’zolarining majburiyatlari:
- Ushbu Nizomga va O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning boshqa dasturiy hujjatlariga amal qilish;
  - O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning boshqa a’zolari bilan bahs-munozaralarni odob-axloq me’yorlari doirasida olib borish;
  - O‘zMTDP Markaziy kyengashi va O‘zMTDP “Ayollar qanoti” rahbar organlari qarorlarini bajarishda to‘sinqinlik qilmaslik;
  - O‘zMTDP “Ayollar qanoti” qarorlarini ijro etish bo‘yicha o‘ziga yuklangan majburiyatlarni mas’uliyat bilan bajarish;
  - tyegishli vakolatga ega bo‘lmasdan O‘zMTDP “Ayollar qanoti” nomidan bayonotlar va uning nomidan harakatlarni amalga oshirmaslik.

4.8. O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ga a’zolik undan arizaga asosan chiqib ketganda yoki uning safidan chiqarib yuborish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganida to‘xtatiladi.

4.8.1. O‘zMTDP “Ayollar qanoti” a’zosi quyidagi hollarda a’zolikdan chiqarib yuborilishi mumkin:

- ushbu Nizomda belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda;
- Nizom normalarini buzganda;
- O‘zMTDP “Ayollar qanoti” va uning organlari qarorlarini bajarmaganda;
- boshqa partiya a’zoligiga o‘tganda.

4.8.2. O‘zMTDP “Ayollar qanoti” a’zoligidan chiqarib yuborilgan shaxs, chiqarib yuborish to‘g‘risidagi qaror ustidan partiyaning yuqori turuvchi tarkibiy tuzilmasiga shikoyat qilishi mumkin.

## **V. Konferensiya**

5.1. O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning oliy boshqaruv organi Konferensiyadir.

5.2 Konferensiya 5 (besh) yilda kamida bir marta chaqiriladi.

5.3. Konferensiya delegatlari joylardagi O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar.

5.4. Konferensiya vakillar soni O‘zMTDP MK Ijroiya qo‘mitasi devoni Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari bo‘limi tomonidan belgilanadi. Saylangan delegatlarning uchdan ikki qismi ishtirok etganda Konferensiya ishi vakolatli hisoblanadi.

5.5. Konferensiyaning mutlaq vakolathlariga quyidagilar kiradi:

- O‘zMTDP “Ayollar qanoti” Nizomini qabul qilish, unga qo‘srimcha va o‘zgartishlar kiritish;
- O‘zMTDP “Ayollar qanoti”ning boshqa normativ hujjatlarini qabul qilish;
- O‘zMTDP “Ayollar qanoti” Kengashining hisobotlarini tinglash va tasdiqlash;
- O‘zMTDP “Ayollar qanoti” Kengashi a’zolarining soni va tarkibini belgilash.

## **VI. O‘zMTDP “Ayollar qanoti” Kengashining mutlaq vakolat va vazifalari:**

- 6.1. Konferensiyani chaqirish to‘g‘risida taklif kiritish;
- 6.2. Konferensiyalar orasidagi davrda Partiya “Ayollar qanoti” Kengashi tarkibidan ayrim sabablarga ko‘ra chiqarilgan a’zolari o‘rniga yangi a’zolarni saylash va tasdiqlash (ular keyinchalik navbatdagi Konferensiyada tasdiqlanadi);
- 6.3. “Ayollar qanoti”ning istiqbolga mo‘ljallangan, joriy harakat rejalarini ishlab chiqish;
- 6.4. Hududiy partiya tashkilotidagi “Ayollar qanoti” faoliyatini o‘rganish va ko‘rsatmalar berish hamda O‘zMTDP MK IQ devoni Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari bo‘limiga tegishli tartibda yozma ma’lumotlar taqdim etish.